

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>F.A.Yuldashev</b> Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlarni tadqiq etishning muhim jihatlari .....	108
<b>M.M.Teshaboyev</b> Jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik .....	115

---

SIYOSAT

<b>H.M.Rasulov</b> Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida .....	120
<b>K.X.Avazov</b> Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	124
<b>B.M.Jo'raquziev</b> Yangi O'zbekistonda "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining qaror topishi xususida .....	129
<b>D.A.Mamajonova</b> Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. ma'muriy, jinoyat va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish.....	133
<b>I.A.Raximov</b> "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining-milliy demokratik institut sifatidagi o'rni" .....	138

---

TARIH

<b>E.G.Radjabov</b> Badiiy hamda san'at asarlarida o'zbek tog'-otliq diviziyasi qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov talqini .....	142
<b>B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov</b> Ilk Temir davrida ko'mish marosimiga oid .....	148
<b>X.S.Jumanazarov</b> Turkiston o'lkasida tibbiy muassasalar faoliyati tarixi.....	154
<b>S.R.Tolibova</b> O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo'nalishlari (Asean davlatlari misolida) .....	159
<b>X.X.Azimov</b> Qadimgi va ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo va Xitoy savdo aloqalari (Xitoy manbalari asosida) .....	167
<b>K.S.Karimov</b> Turkistonda mustamlaka huquqiy taksanomiyasi ta'sirida xalq sudyalari lavozimiga tayinlash tartiblari.....	171
<b>N.Xudoyberdiyeva</b> Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishi .....	176
<b>F.U.Temirov</b> Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi va Sadridin Ayniyning publisistik faoliyati .....	179
<b>M.H.Isamiddinov</b> O'zbekistonning antik davr moddiy madaniyatining o'ziga xos tomonlari.....	183

---

ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.G.Sabirdinov</b> Omon Muxtor romanlariga chizgilar .....	188
<b>M.H.Mamatov, P.M.Ahmadchonov</b> Sayfiddin Muhammad Farg'oniy ijodida tasavvufiy tamoyillar .....	191
<b>P.M.Axmadjonov</b> Sayf Farg'oniyning tarjimai holi va hayot yo'liga doir .....	195
<b>G.H.Axmedova</b> Ingliz adabiyotida jorj eliotning ijodi va tanqidiy realizm .....	200
<b>G.V.Abdullayeva</b> Topishmoq she'rlar va ularning badiiy-estetik funksiyasi .....	204

## INGLIZ ADABIYOTIDA JORJ ELIOTNING IJODI VA TANQIDIY REALIZM

## GEORGE ELIOT'S WORKS IN ENGLISH LITERATURE AND CRITICAL REALISM

## ПРОИЗВЕДЕНИЯ ДЖОРДЖА ЭЛИОТА В АНГЛОЯЗЫЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И КРИТИЧЕСКИЙ РЕАЛИЗМ

<sup>1</sup>Axmedova Gavharoy Hasanboy qizi<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, adabiyotshunoslik kafedrası tayanch doktoranti**Annotatsiya**

XIX asrga kelib, tanqidiy realizmi bilan o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqan ingliz adabiyotining bir qator yirik namoyondalari borki, ular ijodini o'rganish orqali nafaqat ana shu davr real hayotini, turmush tarzini, balki Viktoriyan davri adabiyoti ifoda vositalari majmuini, hikoya qilishning realistik tizimini, ramziylik va metafora, teatr elementlari, parodiyalari, satiralari, pantomimalaridan xabardor bo'lish imkoniga ega bo'lamiz.

Viktorian davrining yirik namoyondalaridan biri hisoblangan Jorj Eliot o'z asarlarida o'n to'qqizinchi asrning ijtimoiy tuzilishini tasvirlash, qattiq tanqid qilish bilan birga, Angliyadagi ayollar turmush tarzini, qadr- qimmatini, oiladagi o'rni, huquqi uchun kurashgan fidoiy yozuvchilaridandir. Bu maqola orqali aynan ingliz adibasining ijodi bilan ham yaqindan tanishish imkoniga ega bo'linadi.

**Аннотация**

В 19 веке было много великих представителей английской литературы, которая достигла своего пика благодаря критическому реализму. Изучая их работы, у нас будет возможность изучить не только реальную жизнь того времени, но и сложное литературное выражение викторианской эпохи, реалистичное повествование, метафору и символику, элементы театра, пародии, сатиры и пантомимы.

Джордж Элиот, которая считается одной из великих представительниц викторианской эпохи, описала в своих произведениях социальную структуру 19 века и подвергла ее резкой критике. Благодаря этой статье можно познакомиться с творчеством английского писателя

**Abstract**

In the 19th century, there were a number of great representatives of English literature, which reached its peak with critical realism. Through studying of their work, we will have the opportunity to study not only the real life of the time, but also the complex literary expression of the Victorian era, realistic storytelling, metaphor and symbolism, elements of theater, parody, satire and pantomime.

George Eliot, who is considered one of the great representatives of the Victorian era, described the social structure of the 19th century in her works and severely criticized it. Through this article, it is possible to get acquainted with the work of the English writer.

**Kalit so'zlar:** Viktoriyan adabiyoti, tanqidiy realizm, asar tili, obraz, roman, qahramon nutqi, feministik tanqidchilik.

**Key words:** Victorian literature, critical realism, literary language, image, novel, hero's speech, feminist criticism

**Ключевые слова:** Викторианская литература, критический реализм, литературный язык, образ, роман, речь героя, феминистская критика.

**KIRISH**

Hozirgi globallashuv davrida jahon adabiyotida kechayotgan jarayonlarga nazar tashlasak, dunyo xalqlari adabiyotida umuminsoniy muammolar, g'oyalar mushtarakligini ko'rishimiz mumkin. Tarixda esa har bir xalqning yashash muhitidan, madaniyatidan kelib chiqib adabiyot mavzulari, janrlari yuzaga kelgan va ular o'rtasidagi yaxlitlik, mushtaraklik sekin astalik bilan shakllanib borgan.

Orollarda yashovchi qabilalarning og'zaki xalq she'riyatidan boshlangan ingliz adabiyoti ham XIV asrga kelibgina o'z milliy adabiy tili va millatiga ega bo'ldi. Aynan shu davrdan boshlab, ingliz adabiyoti nafaqat qahramonlar tasviri, hazil, ijtimoiy illatlarni satirik masxaralashdan tortib rivojlangan yetuk falsafiy tafakkur, sotsialistik g'oyalarga ega bo'lishni boshlagan bo'lsa, XIX asrga kelib, ma'rifatparvarlik g'oyalari, madaniyatning kurtaklari, tanqidiy realizmi bilan o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqan oldi. Chunki aynan tanqidiy realizm ingliz adabiyotining eng yetakchi tendensiyasi sifatida e'tirof etiladi.

Realistik elementlar barcha davrdagi ijod namunalarida qisman mavjud deya e'tirof etilsa-da, lekin uning badiiy tizim sifatida shakllanishi va rivojlanishi bir qancha asrlarni o'z ichiga oladi.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Realizm lotincha “realis-ashyoviy” degan ma’noni bildirib, hayot haqiqatini asliga muvofiq tasvirlash, detallar va obrazlarning haqqoniyligini talab qiladi. Realistlar obrazlar va hodisalarning hayotiylikiga alohida e’tibor berishgan. Asar tili, qahramon nutqi, syujet, konflikt kabi unsurlarning barchasi haqqoniylik talabiga bo’ysundirilgan.

Ingliz adabiyotining eng muhim janrlaridan biri hisoblangan roman janri strukturasi yangi xususiyatlar bilan boyishi, tanqidiy realizmning gullab yashnashi romantizmning yakuni va tanqidiy realizmning boshlanishi bilan bog’liq. Bu jarayon esa Angliyada qirolicha Viktoriya hukmronligi davriga to’g’ri keldi. Bu davr ilm-fanning rivojlanishi, sanoatlashtirishning boshlanishi, reformatsiyalashtirishning yuzaga kelishi, ijtimoiy hayotning o’zgarishi, turli aholi qatlamlarining turmush tarzi ijobiyliklariga sababchi bo’la olgan davr sifatida tarixda o’z o’rni va ahamiyatiga ega.

Dastlab yosh Dikens, Tekkereylarning ijodi bilan boshlangan ingliz tanqidiy realizmi, keyinchalik Dizraeli, Kingsli, Bulver-Litton, Brontelar va Jorj Eliotlar ijodi bilan yanada muvaffaqiyatga erishdi. Ular o’z asarlarida ana shu davrning g’oyalarini ham, ma’naviy tamoyillarini ham bir jabhaga jamlay ola bildilar. Ishchilar hayotini, ayol mehnatkashlarning ayanchli ahvoli-yu xalqning muhtojligini ko’rsatish bilan birga mamlakatda islohotlar o’tkazishni ham talab qila oldilar. Ingliz romanchilarining bu ajoyib pleyadasi o’z asarlarida nafaqat real hayotni, balki jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni ham ko’rsatib berdilar va uning kamchiliklarini ya’ni snobizm, ortiqcha xudbinlik, shuhratparastlikni ochib tashladilar, shu bilan bir qatorda oliyanob gumanistik ideallarni ham ilgari surdilar. Ular o’z ijodlari bilan ifoda vositalari majmuini, hikoya qilishning realistik tizimini ramziylik va metafora, teatr elementlari, parodiyalar, satiralar, pantomimalar bilan boyitdilar.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tarixning har bir oni, lahzasi turli xil ko’rinishdagi fidokorliklarni va fidoiy insonlarning guvohi bo’lganki, ularni sanab adog’iga yetib bo’lmaydi. Qancha zulmat, qorong’ulik bo’lmasin, kun qanchalik yovuzlikka burkanmasin, uni yoritishga harakat qilgan insonlar doim topilgan. Har olgan nafasini xalq, millatining ertangi yorug’ kuni uchun baxshida eta olgan insonlar bor ediki, ular sabab bugun dunyo xalqlari mana shunday rivojlangan, porlagan kunlariga yetib kela oldilar. Bu harakatlar esa har xil ko’rinishda yuzaga keldi, kimdir qilichi, kimdir o’z qoni, yana kimdir qalami bilan xalqiga fidokorlik ko’rsata oldi. Ana shunday o’z davrining, millatining fidokorlaridan biri bo’lgan deya e’tirof etishimiz mumkin bo’lgan shaxslardan biri ingliz yozuvchisi Jorj Eliotdir. Ayol bo’lishiga qaramasdan, ana shu davr tabaqalashuvlaridan cho’chimay, ayollar erki, huquqi, oila va nikohdagi o’rni, hurmati, qadr-qimmatini uchun kurashgan yozuvchi edi u.

Ingliz adabiyotida ayollar nasrini boshlab bergan deya Jeyn O’stin e’tirof etilsa, Viktoriyan davri adibalaridan opa-singil Bro’ntelar, Yelizavet Gaskel, Jorj Eliotlar uning izdoshlari sifatida o’rganiladi. Bu ayol yozuvchilarning nafaqat ingliz adabiyotida, balki jahon adabiyotiga qo’shgan hisslari benihoya yuksakki, ular ayol erki uchun kurashgan yozuvchilar deya hurmat bilan yodga olinadilar.

Adabiyotning mangu mavzusi – ayollar, nafaqat ayol yozuvchilar, balki erkak yozuvchilar asarlarida ham o’ziga xos tarzda ifoda etilgan bo’lib, adabiyotshunoslikda bunday yondashuv feministik tanqidchilik nomi bilan yuritiladi. Feministik tanqidchilik adabiyotga rasmiy ravishda 1960-yillarda kirib keldi, ammo bu jarayongacha ikki asrlik ayollar huquqlari va ularning jamiyatdagi o’rni xususida yozilgan asarlar va ayol erki uchun kurashgan yozuvchilar ijod qilgan bo’lib, ular tom ma’nodagi feministik tanqidchilikning poydevoriga asos solgan edilar. Shu jumladan, Jorj Eliot ham o’zi voyaga yetgan muhit va ijtimoiy jarayon ta’sirida badiiy asarlardagi ayollar himoyachisiga aylangandi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Asl ismi Meri Enn Evans bo’lgan Jorj Eliot, Nuneaton shahri, Angliyada Arberi Xoll mulkidagi janubiy fermadagi oilalardan birida tug’ilib, voyaga yetgan. U Arberi Xoll mulkining menejeri Robert Evans va mahalliy tegirmon egasining qizi Kristiana Evansning uchinchi farzandi edi. Uning Krissi va Kristiana ismli egizak ukalari bo’lib, ulardan Kristiana tug’ilgandan bir necha kun o’tgach vafot etgan. Shundan so’ng Eliot oilada Krissi singlisi, va yana bir o’gay aka-singlisi bilan birga ulg’aydi.

Yosh Evans juda kichikligidanoq tengdoshlari orasida ishtiyoqi va aqli bilan ajralib turgan. Lekin Evans ana shu davr talabidan kelib chiqqani holda, juda chiroyli va ko'zga ko'ringan qiz bo'lmagani bois, otasi uning ta'limiga ko'proq e'tibor qaratish manfaatliroq degan xulosaga keladi va Eliotni ko'proq ta'limga yo'naltiradi. Beshdan to'qqiz yoshigacha, u singlisi Krissi bilan Attleborodagi Miss Latham maktabida, to'qqizdan o'n uchgacha Nunetondagi Missis Uollington maktabida va 13 yoshdan 16 yoshgacha Koventridagi Miss Franklin maktabida o'qigan. Uollington xonimning maktabida unga Mariya Lyuis ismli ana shu davrning ko'zga ko'ringan muallimasi dars bergan. Keyinchalik Eliot ijodi davomida ana shu muallimasiga juda ko'plab maktublar yozgani va aynan mana shu maktublar adibaning hayoti va ijodini yaqindan o'rganish, uning hissiy kechinmalari-yu insoniy tuyg'ularini tahlil etishda juda katta foyda keltirdi. Maktabning diniy muhiti esa Evansning tabiatan xushchaqchaq, sho'x xarakterini xotirjam, intizomli e'tiqodga o'zgarishiga sababchi bo'ldi.

O'n olti yoshidan keyin Evans deyarli hech qanday rasmiy ta'lim olmadi. Otasining ana shu davrda mulkdorlardan biri bo'lgani, unga keyinchalik Arberi Xoll kutubxonasiga kirish huquqini berdi. Aynan mana shu kutubxona Evansning o'z-o'zini tarbiyalashiga va bilimlarining kengligiga katta hissa qo'shdi. Uning ijodiy faoliyatida esa klassik ta'lim o'z izini qoldirdi. Kristofer Stray ta'kidlaganidek, "Jorj Eliotning romanlari asosan yunon adabiyotiga bag'ishlangan va uning syujetlari ko'pincha yunon fojiasidan ilhomlangan holda yaratilgan"[2,43]. Uning erta yoshida hayotiga ta'sir qilgan yana bir muhim omil bu din edi.

1836-yilda uning onasi vafot etdi va Evans uyga qaytib, uy bekasi bo'lib o'tirishga majbur bo'ldi, lekin ustozlari Mariya Lyuis bilan yozishmalarini davom ettirdi. U 21 yoshida o'gay akasi Isak oila qurdi va oilaviy uyni egallab oldi, shuning uchun Evans otasi bilan Koventri yaqinidagi Foleshillga ko'chib o'tishga majbur bo'lishdi. Koventri jamiyati Eliotga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi, ayniqsa dinga bo'lgan munosabati bir muncha vaqt qiziqish va shubhalanish orasidagi tushunarsiz holatda qoldi.

Evansning radikal va erkin fikrlovchi Breys bilan yaqin do'st bo'lishi, Evansning dunyoqarashini bir karra o'zgartirib yubordi. Evansning dinga qiziqishi ortgani sari, uyda do'sti Breys bilan ana shu davrning bir qator ko'zga ko'ringan radikallarini yig'ib, turli munozara, diniy bahslashuvlar o'tkazgani keyinchalik aynan shu sabab orqali otasi bilan kelishmovchilikka borib qolgani va otasi adibani uydin haydagani haqida ma'lumotlar bor. Darhaqiqat, uning birinchi jiddiy adabiy asari ham aynan diniy tarjima ishi bo'lib, u Strausning "Isoning tanqidiy ko'zdan kechirilgan hayoti" asarining ingliz tiliga tarjimasini bo'ldi.

Evans dastlab tarjima ishlari va kichik esselar yozish bilan o'z ijodini boshlagan bo'lsa, asta sekinlik bilan yirikroq janrga qo'l urdi. "Novelist xonimlarning ahmoqona romanlari" nomli bir essesida ingliz adabiyotidagi romanlarga nisbatan o'z manifestini bayon qildi. Ocherkda ayollar tomonidan yozilgan zamonaviy badiiy adabiyotning arziyasi va kulgili syujetlari tanqid qilindi va Yevropada yozilayotgan romanlarning realizmini maqtagan, realistik hikoyalarga urg'u berish kerak degan fikrni ilgari surgan. O'zining keyingi badiiy ijodida esa aynan tanqidiy romanlar yozish bilan fikrini tasdiqlagan.

Romanlarini esa Jorj Eliot taxallusi bilan yozishni afzal bildi. Garchi ana shu davrda ham ayol mualliflar hayoti davomida o'z nomlari bilan asarlarini nashr ettira olgan bo'lsa-da, Evans o'z asarlarini ham boshqa ayollarning yozganlari kabi oddiy ishqiy romanlar yoki jiddiy qabul qilinmaydigan yengil asarlar bo'lib qolishidan xavotirdaligi sabab, erkak ismi ostida ijod qila boshlaganini yozuvchining o'zi bir maktubida muallimasiga yozgan. Jorj Eliot taxallusi ostida yozuvchi bir qancha romanlar yozdiki, ular nafaqat ingliz adabiyoti uchun, balki dunyo kitobxonlari uchun nodir asarlarga aylandi:

- "Odam Bede" (1859)
- "Floss ustidagi tandir" (1860)
- "Silas Marner" (1861)
- "Romola" (1863)
- "Feliks Xolt, Radikal" (1866)
- "Middlemarch" (1871-72)
- "Daniel Deronda" (1876)

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Yozuvchiga bu romanlari o'z davridayoq mashhurlik olib keldi, hatto qirolicha Viktoriyaning qizi Eliotning barcha romanlarini ishtiyoq bilan o'qigan va "Odam Bede"dan shunchalik ta'sirlanganki, u rassom Edvard Genri Korbuldga kitobdagi sahnalarni chizishni topshirgan.

Eliot bir necha yillardan beri azoblangan buyrak kasalligi bilan 1880-yil 22-dekabrda 61 yoshida vafot etdi.

Uning tug'ilgan joyi Nuneatondagi bir nechta diqqatga sazovor joylar uning sharafiga nomlangan: Jorj Eliot akademiyasi, Jorj Eliot kasalxonasi, Koventri shtatidagi Foleshill shahridagi Jorj Eliot ko'chasi kabilar.

**XULOSA**

Shu o'rinda alohida ta'kidlashimiz lozimki, ingliz yozuvchilaridan hisoblangan Jorj Eliot hayoti, ijodi haqidagi ma'lumotlar dunyoning juda ko'plab tillariga tarjima qilinib o'rganilayotgan bir paytda, o'zbek tilida yozuvchi haqida manbalar juda kamligi, deyarli yo'qligi biroz achinarli. Holbuki, XIX asr ingliz adabiyotining yorqin vakilasining ijodini o'rganish o'zbek o'quvchilari uchun yangi bilimlar eshigini ochadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Davis, L. J. (1987) *Resisting Novels*. Methuen & Co. Ltd: London
2. De Giustino, D. (1975) *Conquest of Mind: Phrenology and Victorian Social Thought*. Rowan and Littlefield: New Jersey, 87-p.
3. During, S. (1988) *The Strange Case of Monomania: Patriarchy in Literature, Murder in Middlemarch, Drowning in Daniel Deronda*. *Representations*, No.23 (Summer), pp.86-104
4. Eliot, G. (1955) *The George Eliot Letters: 1874-1877*. Yale University Press ed. Yale University Press: New Haven
5. Eliot, G. (1974) *Daniel Deronda*. Penguin English Library: Middlesex
6. Eliot, G. (1994) *Middlemarch: A Study of Provincial Life*. Wordsworth Editions Ltd: Hertfordshire
7. George Eliot 's *Daniel Deronda Notebooks*, ed. Jane Irwin (Cambridge University Press, 1996).
8. Kathryn Hughes, *George Eliot: The Last Victorian* (Farrar, Straus & Giroux, 1998).
9. Nancy Henry, *The Life of George Eliot* (Wiley Blackwell, 2012);
10. *The George Eliot Letters*, 9 vols., ed. Gordon S Haight (Yale University Press, 1954-78).